

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TA’LIM HUQUQINING ZAMONAVIY TALQINI VA UNING AMALIY AHAMIYATI

Sadinova Zarina Sirojiddin qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi.

e-mail: sadinovazarina7@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 18.01.2026

Revised: 19.01.2026

Accepted: 20.01.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*Konstitutsiya, modda,
qonun, shaxs kamoloti,
fuqaro, intellektual
mulk, inklyuziv ta’lim,
huquq, demokratik
qadriyat, norma.*

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta’lim sohasiga oid moddalar mazmuni va ularning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Unda fuqarolarning sifatli va bepul ta’lim olish huquqi, ta’limning uzluksizligi, zamonaviy o‘qitish sharoitlarini yaratish hamda davlatning ta’lim sohasidagi majburiyatlari yoritiladi. Maqola ta’lim tizimining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va konstitutsiyaviy kafolatlarning yoshlar rivojiga ta’sirini zamonaviy nuqtai nazardan ochib beradi.

*Har bir davlat o‘z istiqlool va taraqqiyot yo‘lini tanlar ekan, xalq farovonligini
ta’minlashga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarini o‘zining*

Konstitutsiya – asosiy qonunida mustahkamlab oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.Mirziyoyev

Dastlab, Konstitutsiya nima? degan savol kelib chiqadi. Konstitutsiya (lotincha: constitution-“ tuzilish”, “ tuzuk “) – bu davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi,

saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi.

Konstitutsiyaning ta'lim tizimida tutgan o'rni qanday? Konstitutsiya ta'lim madaniyatini shakllantirish, shaxs kamoloti va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashning eng muhim omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ta'lim sohasini rivojlantirishda asosiy o'rin tutadi, chunki aynan qonunchilik normalari nafaqat chegaralarni, balki butun ta'lim jarayoni quriladigan tamoyillarni ham quradi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda ta'lim masalalariga bag'ishlangan alohida moddalar bor:

50-modda.

Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi.

Bu modda har bir insonning ta'lim olish imkoniyatiga egaligi, davlat uzluksiz ta'lim tizimini yaratishi, uni rivojlantirishi va qo'llab-quvvatlashi shartligi, bepul ta'lim olish huquqi mavjudligi, ta'lim muassasalarini har bir bolaning ta'lim imkoniyatlariga moslashga yo'naltirilgan.

51-modda.

Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli. Oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega.

Mazkur moddada davlat granti asosida oliy ta'lim olish konstitutsion norma sifatida mustahkamlangan. Akademik erkinlik o'z fikrini erkin bildirish huquqining tarkibiy qismi bo'lib, oliy ta'lim tashkilotlarida bilim berish va ilmiy tadqiqot o'tkazish erkinligidir. O'zini o'zi boshqarish bu – oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonini tashkil etish va ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, tashkiliy boshqaruv, moliyaviy faoliyat va boshqa masalalar bo'yicha qaror qabul qilishdagi mustaqilligi va javobgarligini anglatadi.

52-modda.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy

salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Ushbu modda orqali o'qituvchilar huquqlarini himoya qilishga konstitusiyaviy maqom berilgan. Jamiyatni inson, insonni esa ta'lim va tarbiya o'zgartiradi. Millat va xalqning rivoji, uning intellektual salohiyatini oshirish, avvalombor, o'qituvchilar faoliyatiga bog'liq. Shu sababli o'qituvchilar mehnati davlat va jamiyatni rivojlantirish, sog'lom va barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etilgan.

53-modda.

Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi.

Rivojlanish doimo insonlar ijodiy faoliyati natijasi orqali amalga oshgan. Barcha yangiliklar zahirida inson va uning aql-zakovati turganligi bois, konstitusiyada ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Intellektual mulkni muhofaza qilish, avvalo, uning yaratuvchisi bo'lgan egasining barcha huquqlari tan olinishini, o'z manfaati yo'lida bema'lol foydalanishini va turli tajovuzlardan himoya qilinishini anglatadi. Intellektual mulk obyekti egasi uni boshqa mulk-singari sotish, meros qilib qoldirish, sovg'a qilish va har qanday tarzda foydalanishga ruxsat berish yoki taqiqlash huquqiga ega.

Konstitutsiyaga ta'lim olish huquqi to'g'risidagi moddaning kiritilishi fuqarolar uchun quyidagi imtiyozlarni beradi:

- **Birinchidan**, bu ta'limni insonning asosiy huquqi sifatida tushunishni kuchaytirishga yordam beradi.
- **Ikkinchidan**, ushbu huquqning mustahkamlanishi uning yanada ishonchli va barqaror himoya qilinishini ta'minlaydi.
- **Uchinchidan**, aniq me'yor va tamoyillarga asoslangan qulay ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi, bu esa mamlakat ta'limini rivojlantirishga xizmat qiladi.
- **To'rtinchidan**, bu barcha fuqarolar uchun ta'lim olishda ko'proq teng imkoniyatlar yaratishga yordam beradi va natijada ijtimoiy tengsizliklarni kamaytiradi. Alohida ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim va tarbiyaning tashkil etilishi, ularni hamma qatori umumiy maktablarda ham o'qishini yo'lga qo'yilishi Yangi O'zbekistonda inson qadri tamoyilining amaliy ifodasi hisoblanadi.

Konstitutsiyamizga kiritilgan ta'limga oid moddalar natijasida amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari ham anchagina. Xususan:

1.O'qituvchilar qadr-qimmatini himoya ostida. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr qimmatini himoya qilish , ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi mustahkamlandi.

2.Tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqi berildi. Konstitutsiyamizga ushbu normaning kiritilishi professor-o'qituvchilar va talabalarning o'quv jarayonidagi mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

3. Oila rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Davlat oilaning to'laonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi konstitutsiyaviy mustahkamlandi.

4. Farzandlar ta'lim olishi ota-ona majburiyatiga kirmoqda. Nafaqat farzandlar tarbiyasi, balki ularga ta'lim berish, barkamol kamolga yetkazish ham ota-ona majburiyati sifatida belgilandi.

5. Ta'limga e'tibor va kafolatlar kengaytirildi. Ta'lim va ilm-fanga oid normalar qariyb 2 barobarga oshdi.

6. Davlat oliygohlarida davlat hisobidan o'qish belgilandi. Grantlar soni 2 baravar ko'payib, 40 mingga yetdi. Shundan, magistratura uchun 5 baravar ko'paydi.

7.Bepul boshlang'ich professional ta'lim berildi. Bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim kafolatlandi.

8. Inklyuziv ta'lim konstitutsiyaga kiritildi. Nogironligi bor bolalar tengdoshlari bilan bir xil ta'lim olishi uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Konstitutsiyada davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi va boshlang'ich professional ta'lim bepul ekanligi ham belgilangan. O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishga doimiy e'tibor qaratilib, bu yil sayin ortib bormoqda. O'tgan yillar davomida salmoqli natijalarga erishilganini alohida ta'kidlash lozim. Maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish darajasi 27,7 foizdan 71,8 foizga, maktablar soni 9719 tadan 10522 taga yetdi. Oxirgi yillarda oliygohlar soni 77 tadan 210 taga, ularga qabul esa, 5 baravarga ortib, talabalar soni 1 millionga, oliy ta'lim qamrovi – 9 foizdan 38 foizga oshdi. Davlat grantlari soni ham 2 baravar ko'payib, 40 mingtaga yetdi, shundan, magistratura uchun – 5 baravar ko'paydi. Shuningdek, ta'limga sarmoya kiritish mamlakat kelajagiga sarmoya kiritish ekanligini hisobga olsak, oliy ta'limni rivojlantirish nafaqat yuqori malakali kadrlar tayyorlash, balki ijodiy fikrlash, izlanish va yangi

texnologiyalarni ishlab chiqishni rag'batlantiradi. Bu omillar zamonaviy dunyo muammolariga muvaffaqiyatli moslasha oladigan barqaror jamiyatni shakllantirishga yordam beradi.

Qisqa qilib aytganda, Konstitutsiyada ta'limga oid moddalar davlatning ta'limga katta e'tibor qaratishini ko'rsatadi. Bu moddalar orqali har bir fuqaroning sifatli ta'lim olish huquqi kafolatlanadi. Eng muhimi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'limning bepul bo'lishi xalq manfaatiga xizmat qiladi. Shuningdek, davlat ta'limning uzluksiz va izchil bo'lishini ta'minlab, yoshlarning bilimli, malakali va jamiyatga foydali bo'lib yetishishini maqsad qiladi. Ta'limga oid moddalar o'qituvchilar mehnatini qadrlash, zamonaviy ta'lim sharoitlarini yaratish, hamma uchun teng imkoniyat berish kabi tamoyillarni mustahkamlaydi. Bu esa ta'lim tizimini yanada rivojlantirib, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: -2023
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasiga oid farmon va qarorlari (2024–2025)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019
4. Prezident ma'ruzalari:
<https://president.uz/oz/lists/view/7782>
<https://president.uz/oz/lists/view/7256>